

**Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta‘qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida
REGLAMENT**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida (keying o‘rinlarda-“Jamiyat” deb yuritiladi) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish hamda xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish, shuningdek ularning ta‘qib qilinmasligi kafolatlarini ta‘minlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko‘maklashgan xodimlar – “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xodimlari;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish – “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”, kabi ichki me‘yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o‘tkazilayotgan xizmat tekshiruvi jarayonida bevosita ko‘maklashish;

maxsus komissiya - korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish uchun Jamiyat huzurida tuzilgan komissiya.

korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar – O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61¹, 193¹, 193² va 193⁴ -moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar – O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar.

aloqa kanallari – Jamiyat tizimida mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xodimlar tomonidan xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari.

3. Jamiyatda mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida quyidagi aloqa kanallari orqali ma‘lumot berilishi ta‘minlanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

-Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

-Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/uzrailway>)) orqali;

-Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch telefon raqami orqali);

-Jamiyatning telegram boti (@uzrailway_antikor_bot) Tashkilotga ogʻzaki (shaxsan) murojaat qilish;

-huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda koʻrsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

2-bob. Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarning maxfiyligi va taʼqib qilinmasligi kafolatlari

4. Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarning shaxsiga doir maʼlumotlarning maxfiyligi taʼminlanadi.

Murojaatlarni koʻrib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ularning roziligisiz, shuningdek davlat sirini yoxud qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi maʼlumotlarning va, agar bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan boʻlsa, boshqa axborotning oshkor etilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Jismoniy va yuridik shaxs toʻgʻrisidagi, murojaatga taalluqli boʻlmagan maʼlumotlarni aniqlashga yoʻl qoʻyilmaydi.

Jismoniy shaxsning iltimosiga koʻra uning shaxsiga doir biron-bir maʼlumot oshkor etilmasligi kerak.

Agar murojaatchi oʻz xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga oʻz xohishiga koʻra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan boʻlsa, Jamiyat uning oshkor boʻlishiga javobgar boʻlmaydi.

5. Xabar bergan xodimlarning xavfsizligi va taʼqib qilinmasligi kafolatlanadi.

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila aʼzolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila aʼzolarini ular oʻz huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini roʻyobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida murojaat etganligi, shuningdek murojaatlarda oʻz fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan taʼqib etish man etiladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda koʻmaklashgan xodimlarni ragʻbatlantirish asoslari va turlari

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda koʻmaklashgan xodimlar

quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

- fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarligi haqida aloqa kanallari orqali xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

- nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantiriladi:

❖ korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarga esdalik sovg'a qiymati - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha;

- korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

❖ pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida; o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

❖ pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida; o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

❖ pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foizi miqdorida;

ko'p yoki juda ko'p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foizi miqdorida.

8. Xodim korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

9. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur xabar tasdiqlanganda;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

10. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Jamiyatning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

11. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Reglamentning 1-ilovasida keltirilgan Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Maxsus komissiyaning taqdimnomasi asosida amalga oshiriladi.

Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi: -

Jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'inishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

- soha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

- qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish.

13. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

14. Ushbu Reglament talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

15. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

16. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

17. Maxsus komissiya taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Jamiyat buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

18. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning

to'liqliligi, asosliligi hamda ushbu Reglament talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

19. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Reglament talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Reglament talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

20. Rag'batlantirish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida ijro uchun yuboriladi.

21. Maxsus komissiyaning raisi komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

22. Maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida ichki buyruq chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng besh ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng uch ish kuni ichida topshiriladi.

23. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi Jamiyat boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning reyestri Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

26. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

27. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28. Ushbu Reglament talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Reglamentga ilova

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiya tarkibi

T/R	Maxsus komissiya a'zosining F.I.SH	Maxsus komissiya a'zosining lavozimi
1.	Yusupov Jamolbek Zokir o'g'li	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisining rejim va kadrlar bo'yicha o'rinbosari-Maxsus komissiya raisi.
2.	Zulfikarov Farxod Yo'ldashxodjayevich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i
3.	Sabirov Davronbek Atamuratovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash departamenti boshlig'i
4.	Qodirov Jasurbek Sharafitdinovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Moliya departamenti boshlig'i
5.	Qilichev Umid Ibodullayevich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Iqtisodiy tahlil va prognozlash departamenti boshlig'i
6.	Raximov Anvar Sheraliyevich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Yuridik departamenti boshlig'i
7.	Rustamov Jahongir Ilhom o'g'li	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruv raisi huzuridagi kotibiyat boshlig'i-maxsus komissiya kotibi

* Komissiya a'zolari lavozimlariga boshqa shaxs tayinlangan taqdirda yangi tayinlangan shaxs komissiya a'zosi sifatida faoliyatini davom ettiradi.